This is not registered version of TotalDocConverter
Bahodirjon degan hazilkash ulfatimiz bor. "Eshon aka" deb hazillashib yuramiz. Bir gal paxta yig'im-terimiga chiqishganda brigada boshlig'i depti:
- Mana shu traktorchimiz ja-a yaxshi yigit-u, kelin bilan oralari chatoq bo'lib qolib, sal xafa bo'lib yuripti-da. Eshon aka, bir duo qiling, zora kelinning ko'ngli ilib...
- Quruqdan-quruq qanday bo'larkan?..
- E-e, Eshon aka, ertaga eriydi-da!
Bahodirjon uzundan uzoq duo qilibdi. Traktorchi xursand bo'lib ketibdi-yu, ertasiga qovoq-tumshug'i osilib qaytib kelibdi.
- E-e, duoyingiz o'tmas ekan...
- Siz mendan xafa bo'lmang, - debdi Bahodirjon quvlik bilan, - o'zim ham kechasi bilan uxlolmay chiqdim.
- Nega?..
- Yigirma yil avval olamdan o'tgan otam tushimga kirib, "Shu yoshga kirib ham aqling kirmadimi, nega aytganimni qilmaysan. Mana, qilgan duoying egasiga borib qaytib keldi", dedilar.
- Rostdan-a?
- Ha-da!.. "Qaysi gapingizni bajarmadim, dada", desam:

- Bolam, nasiyaga duo qilmagin, degandim-ku, - deydilar-a.